

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14556596>

KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLIYAVIY HISOBOTNI TAYYORLASH VA TAQDIM ETISHNING AHAMIYATI VA MOHIYATI

Omonova Zarina Xudoymurodovna

Termiz davlat universiteti

Buxgalteriya hisobi va audit kafedrası o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar, ularni tuzishda qo'llaniladigan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, muhim jihatlari, bu borada olimlarning fikrlari yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar, bosh korxonalar, sho'ba korxonalar, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, moliyaviy instrumentlar, investitsiyalar.*

***Annotation:** this article covers consolidated financial statements, international standards, important aspects of financial reporting used in their compilation, the opinions of scientists in this regard.*

***Keywords:** consolidated financial statements, Head Enterprise, subsidiary, International Financial Reporting Standards, financial instruments, investments.*

Bugungi kunga kelib, konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotni tayyorlash va hisobot taqdim etish eng dolzarb hisoblanadi. Bu iqtisodiyotning globallashtirish jarayonlari bilan bog'liq. Jumladan, chet el kapitali ishtirokida korxonalar yaratish, kompaniya va korporatsiyalar tomonidan mahsulotlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatishning faollashuvi, eksport salohiyatining oshishi, chet ellarda ish o'rinlari yaratishni misol qilib keltirish mumkin.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tayyorlash moliyaviy ko'rsatkichlarning solishtirishni yaxshilash imkonini beradi. Korporativ samaradorlik nuqtai nazaridan xalqaro standartlar asosida tayyorlangan moliyaviy hisobotlar investitsiyalar, kredit resurslarini samarali jalb qilish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari jahon iqtisodiyotidagi yangidan paydo bo'layotgan bozorlarga kirish imkonini beradi. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy

hisobotda bosh kompaniya va uning sho'ba korxonalari yagona xo'jalik yurituvchi sub'ektning aktivlari va majburiyatlari, kapitali, daromad va xarajatlari, pul oqimlari sifatida taqdim etiladi. Shuni ham ta'kidlash maqsadga muvofiqi, konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot tushunchasini xorijda tadqiqotlar olib borayotgan olimlar va o'zbek tadqiqotchilari turlicha talqin qiladi. Masalan, rus olimi V.F.Paliyning «Moliyaviy hisob va hisobotida xalqaro standartlar» darsligida: «Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot yagona xo'jalik yurituvchi sub'ekt sifatida konsolidatsiya doirasiga kiruvchi barcha kompaniyalarning moliyaviy holati va xo'jalik faoliyati natijalari»- deb ta'riflansa, Kovalyov tadqiqotlarida esa bu atamaga boshqacharoq, ya'ni «Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot- bu xolding kompaniyasi tomonidan majburiy tartibda tuzilgan korporativ guruhning hisoboti» deb ta'rif beriladi.

O'zbekiston Respublikasida birinchilardan bo'lib banklar moliyaviy hisobotini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlagani iqtisodchilar uchun sir emas. Ammo avvalgi hisobotlar faqat xalqaro tashkilotlar tomonidan bank reytingini aniqlash uchungina asqotgan. Ammo 4611- sonli qarorga asosan majburiy etib belgilangandan keyin hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tayyorlay boshladi.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzishda asosan quyidagi standartlardan foydalaniladi:

1-jadval

MHXS	Nomlanishi
3- sonli MHXS (IFRS)	“Biznes birlashuvlari ”
10-sonli MHXS (IFRS)	“Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot”
11-sonli MHXS (IFRS)	“Birgalikdagi faoliyat bo'yicha kelishuvlar”
13-sonli MHXS (IFRS)	“Xaqqoniy qiymatni baholash”
27-sonli BHXS (IFRS)	“Ta'sir ostidagi tashkilotlar va qo'shma korxonalariga investitsiyalar”
28-sonli BHXS (IFRS)	“Ta'sir ostidagi tashkilotlar va qo'shma korxonalariga investitsiyalar”

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot standartlarida eng muhim atamalar quyidagilar:

2-jadval

Атамалар	Мазмуни
Nazorat	Investor ,agar uning investitsiya ob'ektida ishtirok etishidan daromadlarning o'zgarishi riskiga moyil bo'lsa yoki bunday daromadlarni olish huquqiga ega bo'lsa, shuningdek investitsiya ob'ektiga nisbatan o'z vakolatlarini amalga oshirish orqali daromadlarga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lsa, investitsiya ob'ekti ustidan nazoratga ega bo'ladi.
Vakolat	O'rinli faoliyatni boshqarish imkoniyatini beradigan mavjud huquqlar.
Guruh	Bosh tashkilot va uning sho'ba tashkilotlari
Bosh tashkilot	Bir yoki bir nechta tashkilotlarni nazorat qiluvchi tashkilot
Sho'ba tashkiloti	Boshqa tashkilotning nazorati ostida bo'lgan tashkilot
Ta'sir ostidagi tashkilot	bu investor ahamiyatli ta'siriga ega bo'lgan tashkilotdir.

Investitsiyalar turlarini umumiy holatda investitsiyalar turlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

3-jadval

Asosiy ko'rsatkichlar	Sho'ba tashkilot	Ta'sir ostidagi tashkilot	Birgalikdagi faoliyat bo'yicha kelishuv
Me'zon	Nazorat	Ahamiyatli ta'sir	Birgalikdagi nazorat
Ulush	Ulush>50%	20%<Ulush<50%	Ulushlar teng
Hisobga olish	To'liq konsolidatsiya	Ulushli qatnashish usuli	Turiga bog'liq

Jadvalda ko'rsatilmagan investitsiyalar moliyaviy aktiv sifatida 9-sonli MHXS (IFRS) "Moliyaviy instrumentlar" standarti bilan tartibga solinadi. Bu kabi investitsiyalardan asosiy maqsad ularni ma'lum davr mobaynida saqlab turish va qiymatida bo'ladigan o'zgarishlardan foyda ko'rishdan iborat bo'ladi.

Sho'ba tashkiloti- boshqa bir tashkilotning nazorati ostida bo'lgan tashkilot hisoblanadi. Bu ta'rifdagi asosiy jihat bu nazoratdir. Ko'pincha ya'ni ko'p

holatlarda , tashkilotning boshqa bir tashkilot ustidan nazoratga ega bo'lishini aniqlashda ovoz berish huquqini beradigan aksiya yoki ulushlari hajmidan foydalaniladi. Bu degani ovoz berish huquqlarining ko'pchilik qismi, ya'ni 50 foizdan ko'pi ana shu tashkilotga tegishli bo'lgan taqdirda, ushbu tashkilot nazoratga ega bo'ladi. Sho'ba tashkiloti bosh tashkilot tomonidan to'liq konsolidatsiyalash orqali moliyaviy hisobotga kiritiladi.

Ayrim holatlarda tashkilot ko'pchilik ovoz berish huquqlariga ega bo'lmasa ham, deylik, aksiyalari ulushi 50 foizdan kam bo'lsa ham muayyan shartlarga asosan nazoratga ega bo'lishi mumkin. Ushbu shartlar 10-sonli MHXS(IFRS)da batafsil yoritib berilganligini ko'rish mumkin. Investitsiyalar bo'yicha ulush Ta'sir ostidagi tashkilotlarga sho'ba tashkilotlaridagi kabi 50 foizdan yuqori bo'lmaydi. Balki, ta'sir ostidagi tashkilotlarning yuzaga kelishi uchun me'zon ahamiyatli ta'sir hisoblanadi. 28-sonli BHXS(IAS)ga ko'ra Ahamiyatli ta'sir - bu investitsiya ob'ektining moliyaviy va operatsion siyosati bo'yicha nazorat yoki birgalikdagi nazoratni amalga oshirish emas, balki bunday siyosat bo'yicha qarorlarni qabul qilishda ishtirok etish vakolatidir.

Tashkilotlar tomonidan ahamiyatli ta'sirning mavjudligi quyidagilardan birining ayrim hollarda bir nechtasining mavjudligi bilan tasdiqlanadi:

- investitsiya ob'ektining direktorlar kengashi yoki shunga o'xshash boshqaruv organidagi vakillik;
- muhim texnik ma'lumotlarni taqdim etish.
- boshqaruv xodimlarining o'zaro almashinuvi;
- moliyaviy siyosat ishlab chiqish jarayonida, shu jumladan dividendlar yoki boshqa taqsimotlar to'g'risida qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etish;
- tashkilotlar va ularning investitsiya ob'ektlari o'rtasidagi muhim operatsiyalar.

10-sonli MHXS(IFRS) talabiga ko'ra, bosh tashkilot konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni albatta tayyorlashi kerak. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot bu bosh tashkilot va uning sho'ba tashkilotlarining aktivlari, majburiyatlari,

xususiy kapitali, daromadi, xarajatlari va pul oqimlarini yagona xo‘jalik sub’ektiga tegishli deb taqdim etiladigan tashkilotlar guruhining moliyaviy hisobotidir.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Konsolidatsiyalashda bosh tashkilot o‘zining barcha sho‘ba tashkilotlarini muhimlik tamoyillarini hisobga olgan holda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotiga kiritishi lozim.

Tashkilotlardagi investitsiyalar sho‘ba tashkiloti ekanini aniqlashda muhim me’zonlardan biri bu nazorat hisoblanadi. Quyidagi shartlar bajarilgan holatda Investor investitsiya ob’ekti ustida nazoratga ega bo‘ladi:

- investitsiya ob’ektiga nisbatan vakolatlarga ega bo‘lganda;
- investorning daromadlari miqdoriga ta’sir ko‘rsatish maqsadida investitsiya ob’ektiga nisbatan o‘z vakolatlarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lganda;
- investitsiya ob’ektida ishtirok etishdan daromadlar o‘zgarishi riskiga moyil bo‘lganda yoki uni olishga nisbatan huquqqa ega bo‘lganda.

Misol uchun, A tashkilot avtomobil ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadi. Tashkilot shina ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadigan B tashkilotning 52 foiz oddiy aksiyalarini xarid qiladi. B tashkilotning ovoz berish huquqlari oddiy aksiyalarga bog‘langan deylik.

Ovoz berish huquqlari o‘rinli operatsiyalarga tegishli bo‘lsa, A tashkilot B tashkilotni nazorat qiladi va u to‘liq konsolidatsiya qilish usulini qo‘llashi lozim bo‘ladi.

Investor investitsiya ob’ektiga nisbatan vakolatga ega hisoblanadi qachonki, o‘rinli faoliyatni, ya’ni investitsiya ob’ektining daromadiga ahamiyatli ta’sir ko‘rsatadigan faoliyatini boshqarish imkoniyatini beradigan huquqlarga ega bo‘lgan holatda.

Ayrim hollarda vakolatni baholash qiyinchilik tug‘dirmaydi, misol uchun investitsiya ob’ektiga nisbatan vakolat, aksiyalar kabi ulushli instrumentlar orqali taqdim etilgan ovoz berish huquqlarining bevosita natijasi hisoblanadi. Vakolatni baholash faqat tegishli aksiyalar paketi bilan bog‘liq ovoz berish huquqlarini inobatga olish yo‘li bilan baholanishi mumkin. Boshqa hollarda, baholash murakkab bo‘ladi va

bir nechta omillarni inobatga olishni talab qilishi mumkin (masalan, vakolat bir yoki bir nechta shartnomaviy kelishuvlar natijasi bo'lsa). A tashkilot B tashkilotning ovoz berish huquqlariga bog'langan oddiy aksiyalarining 40 foiziga egalik qiladi. Bunga qo'shimcha, A korxonaga shartnomaviy kelishuvga asosan B tashkilotning muhim boshqaruv xodimini lavozimga tayinlash, rag'batlantirish yoki ishdan bo'shatish vakolatiga ega. Boshqa aksiyadorlarning har biri B tashkilot tomonidan chiqarilgan aksiyalarning maksimum 1 foiziga egalik qiladi.

A tashkilot nazoratni beruvchi ovoz berish huquqlarining hammasiga egalik qilmasa ham, u o'rinli faoliyatlar bo'yicha qaror qilish ustidan vakolat beruvchi shartnomaviy kelishuvga asosan nazoratga ega bo'ladi.

Investorning daromadlari faqat ijobiy, faqat salbiy yoki ham ijobiy, ham salbiy bo'lishi mumkin, qachonki agar investorning investitsiya ob'ektida ishtirok etishdan oladigan daromadlari investitsiya ob'ektining faoliyat ko'rsatkichlariga qarab o'zgarishi mumkin bo'lsa, investor investitsiya ob'ektida ishtirok etishdan daromadlar o'zgarishi riskiga moyil bo'ladi yoki bunday daromadlarni olish huquqiga ega bo'ladi.

Investitsiya ob'ektini faqat bir investor nazorat qilishi mumkinligiga qaramay, investitsiya ob'ektining daromadlarida bir nechta tomonlar ishtirok etishi mumkin. Masalan, nazorat kuchiga ega bo'lmagan ulushlarning egalari investitsiya ob'ektining daromadlari yoki ularni taqsimlashda ishtirok etishlari mumkin.

Agar investor nafaqat investitsiya ob'ektiga nisbatan vakolatga ega bo'lsa va investitsiya ob'ektida ishtirok etishdan daromadlar o'zgarishi riskiga moyil bo'lsa yoki bunday daromadlarni olish huquqiga ega bo'lsa, balki investitsiya ob'ektida ishtirok etishdan daromatlarga ta'sir ko'rsatish uchun o'z vakolatidan foydalanish imkoniyatiga ham ega bo'lsa, investor investitsiya ob'ekti ustidan nazoratga ega bo'ladi.

Quyidagi shartlarni qanoatlantirgan bosh tashkilot konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni taqdim etmaydi:

-Boshqa tashkilotga to'liq yoki qisman egalikdagi bosh tashkilot ;

-tashkilotning mulkdorlari shu jumladan boshqa hollarda ovoz berish huquqiga ega bo'lmagan mulkdorlar bosh tashkilot konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot taqdim etmasligi to'g'risida xabardor qilingan va bunga qarshi e'tiroz bildirmagan bo'lsa;

- qarz va ulushli instrumentlari ochiq savdo qilinmaydigan bosh tashkilot;

-Har qanday turdagi instrumentlarni ochiq bozorga chiqarish maqsadida o'z moliyaviy hisobotini qimmatli qog'ozlar bo'yicha komissiya, boshqa tartibga soluvchi organga taqdim etmagan va taqdim etish jarayonida ham bo'lmagan bosh tashkilot;

-Yaakuniy yoki har qanday oraliq bosh tashkiloti MHXS'larga muvofiq tayyorlangan va foydalanish uchun ochiq bo'lgan konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni taqdim etgan va ularda mazkur MHXSga muvofiq sho'ba tashkilot konsolidatsiya qilingan yoki foyda yoki zarar orqali haqqoniy qiymatda baholangan bosh tashkilot.

Shuni unutmaslik kerakki, Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tayyorlash vaqtida bosh tashkilot va uning sho'ba tashkilotining foydalaniladigan moliyaviy hisobotlari ayni bir hisobot sanasiga tayyorlanishi lozim. Agar farqlar mavjud bo'lsa, sho'ba tashkiloti konsolidatsiyalash maqsadlarida bosh tashkilot sho'ba tashkilotining moliyaviy ma'lumotlarini konsolidatsiyalash imkoniyatiga ega bo'lishi uchun qo'shimcha moliyaviy ma'lumotlarni qayta tayyorlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Qayta tayyorlashning imkoni bo'lmaganda, bosh tashkilot sho'ba tashkilotining moliyaviy ma'lumotini konsolidatsiyalashni mazkur sub'ektning eng so'nggi moliyaviy hisobotliga, ularning tuzilgan sanasi va konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot sanasi oraliq'idagi davrda sodir bo'lgan ahamiyatli hodisalar yoki operatsiyalarning ta'siri hisobga olingan holda tuzatishlar kiritgan holda amalga oshirishi lozim bo'ladi.

U holatda ham bu holatda ham sho'ba tashkilotining moliyaviy hisoboti sanasi va konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot sanasi o'rtasidagi farq uch oydan

oshmasligi, hisobot davrlari muddati hamda moliyaviy hisobotlar sanalari o'rtasidagi farq esa davrdan davrgacha mos kelishi lozimligini e'tiborga olish lozim.

Ba'zida guruh a'zolaridan birortasi o'xshash operatsiyalar yoki o'xshash vaziyatlardagi hodisalar hisobini yuritish uchun konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda foydalanadigan hisob siyosatidan farq qiladigan hisob siyosatini qo'llash holatlari ham faoliyatlarda uchrab turadi. Bu holatda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tayyorlashda guruh hisob siyosatiga muvofiqlikni ta'minlash uchun guruh a'zosining moliyaviy hisobotiga tegishli tuzatishlar kiritilishi talab etiladi.

10-sonli MHXS(IFRS) talabiga ko'ra, bosh tashkilot sho'ba tashkilotin konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotga ushbu investitsiya ob'ektiga nisbatan nazoratga ega bo'lgan sanadan boshlab kiritadi va aksincha nazorat yo'qotilgan sanadan boshlab chiqaradi. Nazorat yo'qotilgan investitsiya egalikda mavjud bo'lganda 28-sonli BHXS (IAS)ga muvofiq ulushli qatnashish usuli orqali yoki 9-sonli MHXS (IFRS)ga asosan moliyaviy instrument sifatida hisobga olinadi.

Ba'zi holatlarda qonunchilik talabi yoki tashkilot moliyaviy ma'lumotlari foydalanuvchilari talabi bilan bosh tashkilot o'zining alohida moliyaviy hisobotini tuzishi mumkin.

Alohida moliyaviy hisobot bo'lishi uchun quyidagi talablar bajarilishi kerak ya'ni, bu tashkilot sho'ba tashkilotlari, qo'shma korxonalar va ta'sir ostidagi tashkilotlaridagi investitsiyalarni boshlang'ich qiymatda, 9-son MHXS "Moliyaviy instrumentlar"ga muvofiq, 28-son BHMS "Ta'sir ostidagi tashkilotlarga va qo'shma korxonalariga investitsiyalar"da ta'riflangan ulushli qatnashish usulidan foydalangan holda hisobga olish tanlay olishi orqali taqdim etiladigan bo'lishi.

Sho'ba tashkiloti 5-son MHXS (IFRS)ga muvofiq sotish uchun mo'ljallangan gurux ta'rifiga javob berganda, ushbu sho'ba tashkiloti 5-son MHXS(IFRS)ga muvofiq hisobga olinadi.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarga quyidagilar kiradi:

- Konsolidatsiyalashgan moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot

- Konsolidatsiyalashgan foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to‘g‘risidagi hisobot
- Konsolidatsiyalashgan pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisobot.
- Konsolidatsiyalashgan xususiy kapitaldagi o‘zgarishlar to‘g‘risidagi hisobot
- Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotga izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tashnazarov S.N. Moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisoboti: xalqaro va milliy jihatlari. Monografiya - T «Iqtisod va moliya» 2009-yil
2. Международные стандарты финансовой отчетности: Издание на русском языке М.: АСКЕРИ-АССА, 2005.
3. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari. Tarjima. A. Rizaqulov, B. Xasanov, A. Usanov, Z. Mamatov. T.: - 2004.
4. Tashnazarov S.N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobot: muammo va yechimlar. Monografiya. - T.: —Navro‘z, 2016 y.
5. В.И.Палий “Международные стандарты учета и финансовой отчетности”: 2008 г Научно-издательский центр ИНФРА-М